

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LEKSIK BILIMLARINI MUSTAHKAMLASHDA NOAN’ANAVIY YONDASHUVLAR

Karimova Feruza

Toshkent shahar Uchtepa tumani “Orom” 38-sonli maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, ularning fikrlash salohiyatini rivojlantirish hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ona tili darslarida o‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish, ularning nutq madaniyatini yuksaltirish va leksik bilimlarni chuqurlashtirishda noan’anaviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada o‘quvchilarning leksik bilimlarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan noan’anaviy metodlar, interfaol usullar va musobaqa asosidagi dars tashkil etish tajribasi yoritiladi.

Asosiy qism

Mazkur dars ishlanmasi 5-sinf ona tili fanidan o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida turli interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Mosini top”, “Saralash”, “4 taraf”, “Ixxham matn” kabi usullardan foydalanilgan. Darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarda ilgari o‘rganilgan leksik birliklar — arxaik va tarixiy so‘zlar, yangi so‘zlar, atamalar hamda iboralar haqidagi bilimlarni takrorlash, ularni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

Dars jarayonida o‘quvchilar 4 ta guruhga bo‘linib, musobaqa shaklida ishladilar. Har bir guruhga “Eskirgan so‘zlar”, “Yangi so‘zlar”, “Atamalar”, “Iboralar” nomlari berildi. Bu yondashuv o‘quvchilarda raqobatbardoshlik, jamoaviylik va o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Shuningdek, darsda test topshiriqlari, maqollarni to‘ldirish, ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlarni topish, iboralardan klaster tuzish kabi mashqlar orqali o‘quvchilar so‘zlarning

ma'no nozikliklarini anglab, nutq boyligini kengaytirdilar. Bunday mashqlar ularning mantiqiy tafakkurini, til sezgirligini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Noan'anaviy metodlar darsni qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, har bir o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Masalan, "Ixcham matn" mashqi o'quvchilarda asosiy fikrni ajrata olish, qisqa va lo'nda ifoda etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida noan'anaviy yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, so'z boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini yuksaltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday metodlar yordamida darslar nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni faol fikrlashga, ijodiy izlanishga undovchi jarayonga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish"ga oid qarorlari.
2. Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim standarti.
3. 5-sinf ona tili darsligi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
4. Karimova F. Dars ishlanmasi: "Mustahkamlash darsi", Toshkent, 2024.